FARMATSEVTIKA SANOATINING ASOSIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI IQTISODIY-STATISTIK USULLARI ORQALI TAHLILI

O'taganova Umida Egamberdi qizi

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,

E-mail: utaganovaumida2010@gmail.com

ORCID: [0009-0002-0405-2919](https://orcid.org/0009-0002-0405-2919)

Annotatsiya. Mazkur maqolada farmatsevtika sanoatining asosiy rivojlanish tendensiyalari iqtisodiy-statistik usullar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot Surxondaryo viloyati misolida 2010–2025-yillar davomida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori preparatlari ishlab chiqarish, eksport hamda import ko'rsatkichlarining vaqt bo'yicha dinamikasini o'rganishga bag'ishlangan.

Tahlil jarayonida dinamik qatorlar usuli, mutlaq va nisbiy o'zgarishlar, o'sish sur'atlari, trend modellar hamda ekstrapolyatsiya usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalar farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish va eksportida uzoq muddatli barqaror o'sish tendensiyasi mavjudligini, import ko'rsatkichlarida esa tarkibiy tebranishlar kuzatilayotganini ko'rsatdi.

Tadqiqot yakunida farmatsevtika sanoatini barqaror rivojlantirishda institutsional qo'llab-quvvatlash va bozor mexanizmlaridan samarali foydalanish muhimligi ilmiy asosda yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari hududiy farmatsevtika siyosatini takomillashtirish hamda prognozlash jarayonlarida amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: farmatsevtika sanoati, dinamik qatorlar, statistik tahlil, trend modeli, prognozlash, eksport va import, Surxondaryo viloyati.

Abstract. This article analyzes the main development trends of the pharmaceutical industry using economic and statistical methods. The study is conducted on the example of the Surkhondaryo region over the period 2010–2025 and examines the time dynamics of production, export, and import indicators of pharmaceutical products and medicines.

The analysis applies time series methods, absolute and relative changes, growth rates, trend models, and extrapolation techniques. The results indicate a long-term and stable growth trend in pharmaceutical production and exports, while import indicators demonstrate structural variability over time.

The study highlights the importance of effectively combining institutional support mechanisms with market-based instruments to ensure the sustainable development of the pharmaceutical industry. The findings can be applied in regional pharmaceutical policy development and sectoral forecasting processes.

Key words: pharmaceutical industry, time series analysis, statistical analysis, trend modeling, forecasting, exports and imports, regional development.

Аннотация. В статье проанализированы основные тенденции развития фармацевтической промышленности на основе экономико-статистических методов. Исследование выполнено на примере Сурхандарьинской области за период 2010–2025 годов и охватывает динамику показателей производства, экспорта и импорта фармацевтической продукции и лекарственных средств.

В процессе анализа использованы методы динамических рядов, абсолютных и относительных изменений, темпов роста, трендовые модели и экстраполяция. Полученные результаты свидетельствуют о наличии долгосрочной устойчивой тенденции роста производства и экспорта фармацевтической продукции, при этом показатели импорта характеризуются структурной изменчивостью.

В работе обоснована целесообразность комплексного использования институциональных механизмов поддержки и рыночных инструментов для обеспечения устойчивого развития фармацевтической отрасли. Результаты исследования могут быть использованы при формировании региональной фармацевтической политики и прогнозировании отраслевого развития.

Ключевые слова: фармацевтическая промышленность, динамические ряды, статистический анализ, тренд, прогнозирование, экспорт и импорт, региональная экономика.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika sanoatida amalga oshirilayotgan tuzilmaviy va tashkiliy islohotlar milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, aholining sifatli dori vositalariga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, dorivor preparatlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonlari tizimli va kompleks yondashuv asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Mazkur islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Farmoni hamda unga asoslangan hukumat qarorlari bilan huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo'lib, farmatsevtika tarmog'ining iqtisodiy samaradorligini oshirish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va sohada raqobatbardoshlikni kuchaytirishga qaratilgan¹.

Tadqiqot doirasida Surxondaryo viloyatida farmatsevtika sanoati rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, jumladan, farmatsevtika mahsulotlari va dori preparatlari ishlab chiqarish qiymati, eksport hamda import ko'rsatkichlari bo'yicha vaqt qatorlari asosida dinamik tahlil amalga oshirildi. Mazkur jarayonda bog'langan dinamik qatorlar kabi statistik modellar qo'llanilib, ishlab chiqarish hajmlarining vaqt bo'yicha o'zgarish tendensiyalari dinamik qatorlar usuli yordamida aniqlab berildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda farmatsevtika sanoati global miqyosda eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu sohaning rivojlanish tendensiyalari, iqtisodiy samaradorligi hamda innovatsion salohiyati ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng qamrovda tadqiq etilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda farmatsevtika sanoatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga (R&D) yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi, raqamlashtirish darajasi, intellektual mulkni himoyalash mexanizmlari hamda global bozorlar bilan integratsiya jarayonlari ko'rsatib o'tiladi. Jumladan, Porter, Schumpeter va boshqa iqtisodchi olimlar innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotning farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishdagi hal qiluvchi rolini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Iqtisodiy-statistik yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlarda esa farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, eksport va import ko'rsatkichlari, dori vositalari assortimenti, bandlik darajasi hamda moliyaviy natijalar dinamikasi tahlil qilingan. Ushbu yo'nalishdagi ishlarda vaqt qatorlari tahlili, indekslar usuli, regressiya va trend modellaridan samarali foydalanilgan bo'lib, bu sanoat rivojlanishining uzoq muddatli tendensiyalarini aniqlash imkonini bergan.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston farmatsevtika sanoatining institutsional rivojlanishi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, farmatsevtika klasterlari faoliyati hamda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, ayrim ilmiy ishlarda statistik tahlil usullaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish zarurati mavjudligi qayd etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, farmatsevtika sanoatining rivojlanish tendensiyalarini iqtisodiy-statistik usullar asosida kompleks va tizimli tahlil qilish ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda farmatsevtika sanoatining asosiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va baholashda iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli va kompleks yondashuvga asoslangan.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo'llanildi:

- statistik kuzatish va ma'lumotlarni guruhlash usuli – farmatsevtika sanoatiga oid asosiy ko'rsatkichlarni tizimlashtirish va tahlil qilishda;
- vaqt qatorlari tahlili – ishlab chiqarish hajmi, eksport va investitsiyalar dinamikasini o'rganishda;
- nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlar usuli – o'sish sur'atlari hamda tarkibiy o'zgarishlarni aniqlashda;
- indekslar usuli – sanoat rivojlanishidagi miqdoriy va sifat jihatidagi o'zgarishlarni baholashda;
- korrelyatsion va regressiya tahlili – farmatsevtika sanoati rivojiga ta'sir etuvchi omillar va natijaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda;

1 lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.



– grafik va jadval usullari – tahlil natijalarini vizual tarzda ifodalashda.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari, sohaviy hisobotlar, xalqaro tashkilotlar statistik ma'lumotlari hamda ilmiy manbalarda e'lon qilingan tadqiqot natijalari tashkil etdi.

Mazkur metodologiya farmatsevtika sanoatining hozirgi holatini baholash, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlarda dinamik qatorlar usuli iqtisodiy jarayonlar va sanoat rivojining qonuniyatlarini o'rganishda keng qo'llaniladi. Ushbu usul yordamida tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlarning asosiy rivojlanish tendensiyalari, davriy tebranishlari hamda kelgusidagi qiymatlarini prognozlash imkoniyati yaratiladi. Dinamik qatorlar usulining afzalligi shundaki, u vaqt omili asosida ko'rsatkichlarni kompleks tarzda tahlil qilish, iqtisodiy jarayonlarning barqarorlik darajasi va o'zgarishlarini raqamli ifodalash imkonini beradi.

Odatda o'rganilayotgan hodisa va jarayonlar dinamikasini miqdoriy jihatdan baholashda quyidagi statistik ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Mutloq o'zgarish — dinamik qatorning ikki ketma-ket yoki solishtirilayotgan hadlari o'rtasidagi farqni ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich tahlil qilinayotgan davrda ko'rsatkichning qancha miqdorga oshgani yoki kamayganini aniqlash imkonini beradi.

Mutloq o'zgarish bazis usulida quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\Delta Y_b = Y_i - Y_0$$

Zanjirsimon usulda esa quyidagi ko'rinishida hisoblanadi:

$$\Delta Y_z = Y_i - Y_{i-1}$$

Bu yerda: ΔY_b va ΔY_z -bazisli va zanjirsimon usullarda hisoblangan mutloq o'zgarish;

Y_i – taqqoslanuvchi had;

Y_0 – baza deb qabul qilingan taqqoslanadigan had;

Y_{i-1} - taqqoslanuvchi haddan oldin keluvchi taqqoslanadigan had.

Dinamikani o'rganishda eng ko'p tarqalgan va ishlatiladigan ko'rsatkichlardan bir o'zgarish sur'atidir.

O'zgarish sur'ati - qatorning ikki hadi nisbatiga aytiladi. Bu ko'rsatkich koeffitsiyentda va foizda (%) ifodalanib, quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$R_b = \frac{Y_i}{Y_0} \cdot 100\% \quad \text{va} \quad R_z = \frac{Y_i}{Y_{i-1}} \cdot 100\%$$

$R_b > 100\%$ bo'lsa, bazis davrga nisbatan ko'rsatkich o'sgan;

$R_b = 100\%$ bo'lsa, hech qanday o'zgarish bo'lmagan;

$R_b < 100\%$ bo'lsa, o'rganilayotgan had o'zidan oldingi hadga nisbatan kamayib ketgan.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, ba'zi adabiyotlarda bu ko'rsatkich o'sish sur'ati deb ham yuritiladi va u doim ijobiy belgiga ega bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi.

Qo'shimcha o'zgarish sur'ati – hodisalarning mutloq o'zgarishini dinamika qatorlarining boshlang'ich hadiga nisbatiga aytiladi va quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$\Delta R_b = \frac{\Delta Y_b}{Y_0} \cdot 100\% \quad \text{va} \quad \Delta R_z = \frac{\Delta Y_z}{Y_{i-1}} \cdot 100\%$$

Bu ko'rsatkichni bazisli va zanjirsimon usullardan foydalanib hisoblash mumkin.

Tadqiqot jarayonida yuqorida keltirilgandan foydalanib Surxondaryo viloyatida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori preparatlari ishlab chiqarish, eksport hamda import qiymatlari ko'rsatkichlarining vaqt bo'yicha o'zgarishi tahlil qilindi (1-jadval).



1-jadval. Surxondaryo viloyatida 2010–2025-yillarda asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori preparatlari ishlab chiqarish qiymatining dinamik tahlili (mlrd.so'm)²

Yillar	Ishlab chiqarish qiymati	Mutloq o'zgarish		O'zgarish sur'ati		Qo'shimcha o'zgarish surati	
		Bazisli	Zanjirli	Bazisli	Zanjirli	Bazisli	Zanjirli
2010	1,3			100			
2011	1,8	0,5	0,5	138	138	38	38
2012	2,1	0,8	0,3	161	116	61	16
2013	2,6	1,3	0,5	200	123	100	23
2014	3,1	1,8	0,5	238	119	138	19
2015	3,7	2,4	0,6	284	119	184	19
2016	12,6	11,3	8,9	969	340	869	240
2017	7,3	6	-5,3	561	57	461	-42
2018	4,3	3	-3	330	58	230	-41
2019	3,1	1,8	-1,2	238	72	138	-27
2020	21,4	20,1	18,3	1646	690	1546	590
2021	19,5	18,2	-1,9	1500	91	1400	-8
2022	24,8	23,5	5,3	1907	127	1807	27
2023	37,5	36,2	12,7	2884	151	2784	51
2024	69,2	67,9	31,7	5323	184	5223	84
2025	88,6	87,3	19,4	6815	128	6715	28

1-jadval ma'lumotlari tahlili Surxondaryo viloyatida 2010–2025-yillarda asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori preparatlari ishlab chiqarish qiymatida umumiy o'sish tendensiyasi shakllanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim yillarda ishlab chiqarish hajmlarida davriy tebranishlar kuzatilgan.

Tahlilda bazis yil sifatida 2010-yil qabul qilinib, mazkur yilda ishlab chiqarish qiymati 1,3 mlrd so'mni tashkil etgan. 2011–2015-yillar davomida ishlab chiqarish hajmi barqaror va izchil o'sib borgan. Jumladan, 2015 yilga kelib ishlab chiqarish qiymati 3,7 mlrd so'mga yetib, bazis yilga nisbatan 2,4 mlrd so'mga yoki 284 foizga oshgan. Ushbu davrda zanjirli o'sish sur'atlari asosan 116–123 foiz oralig'ida shakllangan bo'lib, bu farmatsevtika tarmog'ida barqaror rivojlanish jarayonlari mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

2016-yilda ishlab chiqarish hajmining jadal kengayishi kuzatilib, u 12,6 mlrd so'mni tashkil etgan. Natijada bazisli mutloq o'zgarish 11,3 mlrd so'mga, o'sish sur'ati esa 969 foizga yetgan. Bu holat tarmoqda yangi ishlab chiqarish quvvatlari va investitsion faollik kuchayganini aks ettiradi.

2017–2019-yillarda ishlab chiqarish hajmlarida muayyan darajada sekinlashuv qayd etilgan bo'lib, zanjirli mutloq o'zgarishlar (-5,3; -3,0; -1,2 mlrd so'm) ko'rinishida namoyon bo'lgan. Ushbu davrni ishlab chiqarish jarayonlarining moslashuv bosqichi sifatida baholash mumkin.

2020-yildan boshlab farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishida yangi rivojlanish bosqichi kuzatiladi. Xususan, 2020-yilda ishlab chiqarish qiymati 21,4 mlrd so'mga yetib, bazis yilga nisbatan 20,1 mlrd so'mlik o'sish ta'minlangan. O'sish sur'ati 1646 foizni tashkil etib, bu davrda tarmoqning yuqori sur'atlarda rivojlanayotganini yaqqol ko'rsatadi.

2021-yilda qisqa muddatli korreksiya kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda o'sish jarayonlari yana tiklangan. 2022–2025-yillar oralig'ida ishlab chiqarish hajmi yuqori sur'atlarda oshib borgan. 2025-yilda ishlab chiqarish qiymati 88,6 mlrd so'mni tashkil etib, bazis yilga nisbatan 87,3 mlrd so'mlik mutloq o'sish hamda 6815 foizlik o'sish sur'atiga erishilgan.

Zanjirli o'sish sur'atlarining 128–184 foiz oralig'ida shakllanishi farmatsevtika tarmog'ida barqaror va yuqori iqtisodiy faollik yuzaga kelganini tasdiqlaydi.

Surxondaryo viloyatida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori preparatlari eksport qiymatining vaqt bo'yicha o'zgarishi tahlil qilinganda, quyidagi natijalar aniqlangan (2-jadval).

2 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif muallif hisob natijalari. www.stat.uz



2-jadval. Surxondaryo viloyatida 2010–2025-yillarda asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari eksporti (ming AQSh dollar)³

Yillar	Eksport qiymati	Mutloq o'zgarish		O'zgarish sur'ati		Qo'shimcha o'zgarish surati	
		Bazisli	Zanjirli	Bazisli	Zanjirli	Bazisli	Zanjirli
2010	23,8			100			
2011	54,3	30,5	30,5	228	228	128	128
2012	45,7	21,9	-8,6	192	84	92	-15
2013	65,8	42	20,1	276	143	176	43
2014	80,9	57,1	15,1	339	122	239	22
2015	23,4	-0,4	-57,5	98	28	-2	-71
2016	34,6	10,8	11,2	145	147	45	47
2017	40,5	16,7	5,9	170	117	70	17
2018	15,9	-7,9	-24,6	66	39	-33	-60
2019	5,4	-18,4	-10,5	22	33	-77	-66
2020	98,5	74	93	414	1825	314	1725
2021	0,29	-23,5	-98	1,2	0,29	-98,7	-99,7
2022	0,2	-23,6	-0,092	0,8	68,4	-99,1	-31,5
2023	0,3	-23,5	0,1	1,2	150	-98,7	50
2024	1,7	-22,1	1,4	7,1	566,6	-92,8	466,6
2025	2796,9	2773,1	2795,2	11751	164523	11651	164423

2-jadval ma'lumotlari tahlili Surxondaryo viloyatida 2010–2025-yillarda asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori preparatlari eksporti dinamikasi o'rganilayotgan davr eksport hajmlarining keskin tebranishlari va beqarorligi bilan belgilanadi. Tadqiqotimizda bazis yil sifatida 2010-yil qabul qilingan bo'lib, ushbu yilda eksport hajmi 23,8 ming AQSh dollarini tashkil etgan. 2011–2014-yillar davomida eksport hajmida barqaror o'sish kuzatilgan. Birgina 2014-yilda eksport qiymati 80,9 ming AQSh dollariga yetib, bazis yilga nisbatan 57,1 ming dollarlik mutloq o'sish hamda 339 foizlik o'sish sur'ati qayd etilgan. Ushbu davrda zanjirli o'sish sur'atlarining 122–143 foiz oralig'ida bo'lishi eksport faoliyatining nisbatan barqaror rivojlanganini ko'rsatadi. Biroq 2015-yilda eksport keskin qisqarib, 23,4 ming AQSh dollarini tashkil etgan. Buning natijasida zanjirli mutloq o'zgarish –57,5 ming AQSh dollari, zanjirli o'sish sur'ati esa atigi 28 foizni tashkil etgan. 2016–2017-yillarda eksport hajmi biroz yaxshilangan, 2018–2019-yillarda esa yana sezilarli pasayish kuzatilgan. Jumladan, 2019-yilda eksport hajmi 5,4 ming AQSh dollarigacha tushib, bazis yilga nisbatan 77 foizlik qisqarish qayd etilgan. 2020-yilda eksport hajmida keskin o'sish kuzatilgan. Bu holat bazis yilga nisbatan 74 ming dollarlik mutloq o'sish va 414 foizlik o'sish sur'ati bilan ifodalanadi. Ushbu yil farmatsevtika mahsulotlari eksportida muhim burilish nuqtasi sifatida baholanishi mumkin. 2021–2024-yillar davomida eksport hajmi nihoyatda past darajada qolib, deyarli nolgacha yaqin ko'rsatkichlar qayd etilgan. Masalan, 2021-yilda eksport hajmi 0,29 ming AQSh dollarini tashkil etib, bazis yilga nisbatan 98,7 foizlik qisqarish kuzatilgan. Bu davr eksport faoliyatida jiddiy uzilishlar mavjud bo'lganidan dalolat beradi. 2025-yilda esa eksport hajmida misli ko'rilmagan keskin o'sish qayd etilib, ko'rsatkich 2796,9 ming AQSh dollariga yetgan. Buning natijasida bazis yilga nisbatan mutloq o'sish 2773,1 ming AQSh dollari, o'sish sur'ati esa 11 751 foizni tashkil etgan. Zanjirli o'sish sur'atining nihoyatda yuqori bo'lishi (164 523 foiz) farmatsevtika mahsulotlari eksportida tub burilish va yangi bosqich boshlanganini ko'rsatadi.

Surxondaryo viloyatida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori preparatlari import qiymatining vaqt bo'yicha o'zgarishi tahlil qilinganda quyidagi manzara hosil bo'ldi (3-jadval).

3 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif muallif hisob natijalari. www.stat.uz -

3-jadval. Surxondaryo viloyatida 2010–2025-yillarda asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari importi (ming AQSh dollar)⁴

Yillar	Import qiymati	Mutloq o'zgarish		O'zgarish sur'ati		Qo'shimcha o'zgarish surati	
		Bazisli	Zanjirli	Bazisli	Zanjirli	Bazisli	Zanjirli
2010	972			100			
2011	1070,7	98,7	98,7	110	110	10,1	10,1
2012	10823,5	9851,5	9752,8	1113	1010	1013	910
2013	29461,1	28489,1	18637,6	3030	272	2930	172
2014	2191,4	1219,4	-27269,7	225	7,4	125	-92,5
2015	1674,1	702,1	-517,3	172	76,3	72,2	-23,6
2016	6104,3	5132,3	4430,2	628	364	528	264
2017	8882,4	7910,4	2778,1	913	145,5	813	45,5
2018	18737	17765	9854,6	1927	210	1827	110
2019	37939	36967	19202	3903	202	3803	102
2020	1922,7	950,7	-36016,3	197	5,06	97,8	-94,9
2021	1881,6	909,6	-41,1	193	97,8	93,5	-2,13
2022	2352,6	1380,6	471	242	125	142	25,03
2023	2318,1	1346,1	-34,5	238	98,5	138	-1,46
2024	3731,2	2759,2	1413,1	383	160	283	60,9
2025	6589,4	5617,4	2858,2	677	176	577	76,6

3-jadval ma'lumotlari tahlili Surxondaryo viloyatida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari importi hajmi dinamikasi sezilarli darajada o'zgaruvchan bo'lganini ko'rsatadi. Tadqiqotimizda o'rganilayotgan davrning boshlang'ich yilida import hajmi 972 ming AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda mazkur ko'rsatkichda turli sur'atdagi o'sish va pasayish jarayonlari kuzatilgan. 2011-yilda import hajmi 1 070,7 ming AQSh dollariga yetib, bazis yilga nisbatan 98,7 ming dollarga yoki 10 foizga oshgan. 2012-yilda import hajmining sezilarli o'sishi qayd etilib, u 10 823,5 ming AQSh dollarini tashkil etgan. Bu holat bazisli mutloq o'zgarishning 9 851,5 ming dollarga, bazisli o'sish sur'atining esa 1 113 foizga yetgani bilan izohlanadi. Mazkur davrda farmatsevtika mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning kengaygani kuzatiladi.

2013-yilda import hajmi 29 461,1 ming AQSh dollariga yetib, butun davr ichida eng yuqori o'sishlardan biri qayd etilgan. Bazisli o'sish sur'ati 3 030 foizni tashkil etgan bo'lib, bu viloyatda farmatsevtika ta'minotining import hisobiga kengayganini ko'rsatadi. 2014–2015-yillarda import hajmida pasayish kuzatilib, 2015-yilda ko'rsatkich 1 674,1 ming AQSh dollariga tushgan. Ayniqsa, 2014-yilda zanjirli mutloq o'zgarishning –27 269,7 ming AQSh dollarini tashkil etishi import hajmida sezilarli qisqarish yuz berganini anglatadi.

2016–2019-yillarda import hajmi yana o'sish bosqichiga o'tgan. 2019-yilda import hajmi 37 939 ming AQSh dollariga yetib, bazis yilga nisbatan 36 967 ming dollarga oshgan. Bazisli o'sish sur'ati 3 903 foizni tashkil etib, ushbu davrda farmatsevtika mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning kengaygani va import hajmining ortgani bilan tavsiflanadi. 2020–2021-yillarda import hajmida vaqtinchalik pasayish qayd etilib, 2021-yilda ko'rsatkich 1 881,6 ming AQSh dollarini tashkil etgan. Bu holat global iqtisodiy jarayonlar va tashqi bozor omillari bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan o'zgarishlar bilan izohlanadi.

Shunga qaramay, 2022-yildan boshlab import hajmi barqaror o'sish trendiga ega bo'lib, 2025-yilga kelib 6 589,4 ming AQSh dollarini tashkil etgan. 2025-yilda bazisli o'sish sur'ati 677 foizga, zanjirli o'sish sur'ati esa 176 foizga teng bo'lgan. Umumiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2010–2025-yillarda Surxondaryo viloyatida farmatsevtika mahsulotlari importi yuqori darajada tebranuvchan bo'lib, ayrim yillarda jadal o'sish, ayrim yillarda esa vaqtinchalik pasayishlar bilan tavsiflanadi. Bu holat sohaning tashqi bozorlar bilan faol integratsiyalashganligini hamda iqtisodiy va institutsional omillarning import hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Tahlil jarayonida farmatsevtika sanoatiga oid asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha o'zgarish yo'nalishlarini aniqlash va baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichda o'rganilayotgan jarayonlarning ichki bog'liqliklarini aniqlash hamda statistik jihatdan ishonchli xulosalarga kelish maqsadida trend mavjudligi tekshirildi. Dinamik qatorlarda trendni aniqlash uchun o'rtacha qiymatlar usuli, Vallis va Mur mezoni, Koks va Styuart mezoni, seriyalar usuli hamda grafik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Surxondaryo viloyatida farmatsevtika mahsulotlari va dori preparatlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining trendini aniqlashda grafik tasvirlash usulidan foydalanildi. Trendni aniqlash va uning miqdoriy ifodasini belgilashda

4 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif muallif hisob natijalari. www.stat.uz -



ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'zgarishini eng aniq ifodalovchi regressiya tenglamasini tanlash muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu jarayon zamonaviy hisoblash vositalari yordamida amalga oshirildi. Tadqiqotda Surxondaryo viloyatida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori preparatlari ishlab chiqarish qiymati hamda eksport ko'rsatkichlarining rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash uchun Microsoft Excel elektron jadval dasturidan foydalanildi. Import qiymatini prognozlashda trend modellarning statistik ahamiyati yetarli emasligi aniqlandi. Shu sababli, Microsoft Excel dasturi asosida ishlab chiqarish qiymati va eksport ko'rsatkichlari uchun aniqlik darajasi yuqori bo'lgan trend parametrlari hisoblab chiqildi. Olingan trend modellari yordamida aproksimatsiya xatoliklari inobatga olinib, ekstrapolyatsiya amalga oshirildi va prognoz qiymatlari aniqlandi (4-jadval).

4-jadval. Surxondaryo viloyatida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori preparatlari ishlab chiqarish hamda eksport qiymatlari ko'rsatkichlarining ekstrapolyatsiya qilish orqali olingan prognoz qiymatlari⁵

Ko'rsatkich (faktor o'zgaruvchisi)	Trend tenglamasi	Haqiqiy	Prognoz					2025 y 2030 y %
		2025 y	2026 y	2027 y	2028 y	2029 y	2030 y	
Ishlab chiqarish (mlrd.so'm)	$Y_t = 0,6731 t^2 - 7,1092 t + 16,425$	88,6	55,76	60,09	64,43	68,76	73,09	82,5
Eksport (ming AQSh dollar)	$Y_t = 0,932 t^4 - 27,43 t^3 + 261,8 t^2 - 899,17 t + 873,27$	2796,9	4344,7	7404,1	11651,9	17337,8	24733,61	844

Ekstrapolyatsiya usuli asosida olingan prognoz natijalari Surxondaryo viloyatida farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlarining uzoq muddatli istiqbolda ijobiy rivojlanish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Prognoz natijalariga ko'ra, 2026-yilda ishlab chiqarish hajmi 55,76 mlrd so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Keyingi yillarda esa ishlab chiqarish hajmida barqaror o'sish kuzatilib, 2027-yilda 60,09 mlrd so'm, 2028-yilda 64,43 mlrd so'm, 2029-yilda 68,76 mlrd so'm hamda 2030-yilda 73,09 mlrd so'mga yetishi taxmin qilinmoqda. Shu bilan birga, 2030-yildagi prognoz ko'rsatkichi 2025-yil darajasining 82,5 foizini tashkil etib, ishlab chiqarish hajmining o'rta muddatli istiqbolda bosqichma-bosqich tiklanayotganini ko'rsatadi. Ushbu holat ishlab chiqarish quvvatlarining moslashuvchan rivojlanishi hamda ichki talabning izchil barqarorlashuvi bilan izohlanadi.

Eksport ko'rsatkichlari bo'yicha olingan prognoz natijalari esa yanada yuqori o'sish sur'atlari mavjudligini namoyon etadi. 2025-yilda farmatsevtika mahsulotlari eksporti 2 796,9 ming AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilda bu ko'rsatkich 4 344,7 ming AQSh dollariga yetishi mumkin. Prognozning keyingi yillarida eksport hajmining jadal o'sishi aniqlanib, 2027-yilda 7 404,1 ming AQSh dollari, 2028-yilda 11 651,9 ming AQSh dollari, 2029-yilda 17 337,8 ming AQSh dollari va 2030-yilda 24 733,6 ming AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Natijada, 2030-yilda eksport hajmi 2025-yilga nisbatan 8,44 baravar oshishi prognoz qilinmoqda.

Umuman olganda, prognoz natijalari Surxondaryo viloyatida farmatsevtika sohasining eksportga yo'naltirilgan rivojlanish tendensiyasi shakllanayotganini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish hajmlarining nisbatan mo'tadil o'sishiga qaramasdan, eksport ko'rsatkichlarining tez sur'atlarda oshib borishi mahsulotlarning raqobatbardoshligi kuchayib borayotgani, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayayotgani hamda farmatsevtika sanoatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy choralar samaradorligi bilan izohlanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, olingan prognoz natijalari asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori vositalari ishlab chiqarish hamda eksport hajmlaridagi o'zgarishlarni qisqa va o'rta muddat, ya'ni taxminan besh yil oldinga baholash imkonini beradi. Kuzatuvlar sonining ortib borishi statistik natijalarning ishonchlilikini oshiradi. Biroq dinamik qatorlarni juda uzoq davrga mo'ljallab prognozlash, ayniqsa farmatsevtika sohasida, har doim ham yuqori aniqlikni ta'minlamasligi mumkin. Buning asosiy sababi vaqt o'tishi bilan dastlabki ma'lumotlarning ahamiyati nisbatan kamayib borishidir. Prognoz tuzishda foydalaniladigan ko'rsatkichlar doimiy barqarorlikka ega bo'lavermaydi. Shu sababli o'sish jarayonini ifodalovchi matematik modellar ayrim cheklovlariga ega bo'lishi mumkin. Dinamik qatorning ayrim ma'lumotlari hisobga olinmaganda yoki chiqarib tashlanganda, model parametrlarida o'zgarishlar yuzaga kelib, yakuniy natijalarning aniqligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Farmatsevtika sohasida yuzaga kelayotgan dolzarb masalalar va rivojlanish jarayonidagi muvozanatni ta'minlashni faqatgina davlat ishtiroki yoki faqat bozor mexanizmlari orqali hal etish yetarli emas. Farmatsevtika sohasida barqaror va izchil rivojlanishga erishish uchun davlat boshqaruvi va bozor munosabatlarini o'zaro

5 Jadval muallif ilmiy izlanishlari asosida hisoblangan.



uyg'un holda olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, farmatsevtika ishlab chiqarishini kengaytirish, yangi korxonalarni tashkil etish va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish jarayonida davlat tomonidan iqtisodiy rag'batlantirish choralari hamda samarali huquqiy mexanizmlarni qo'llab-quvvatlash zarur.

Farmatsevtika sohasining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, yuqori texnologiyalarga tayanganlik, ishlab chiqarish jarayonlarining kapital talabchanligi, ayrim xomashyo resurslarining import bilan bog'liqligi hamda tashqi bozorlar bilan uzviy integratsiyalashuvi kabi omillarni hisobga olish muhimdir. Ushbu jihatlar ishlab chiqarish va eksport hajmlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, sohada iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda puxta va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi.

Davlat tomonidan farmatsevtika sohasini qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri qulay moliyalashtirish sharoitlarini yaratish, jumladan, imtiyozli kreditlash mexanizmlarini kengaytirish hisoblanadi. Shuningdek, soliqliq imtiyozlarini joriy etish, budjet mablag'lari hisobidan maqsadli qo'llab-quvvatlash, davlat dasturlari va davlat buyurtmalarini samarali amalga oshirish, shuningdek, oqilona bojxona siyosatini yuritish farmatsevtika sohasining barqaror, raqobatbardosh va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF–60-son Farmoni. 28.01.2022. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Farmatsevtika sanoatini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar. Toshkent, 2023. <https://lex.uz/uz/search?query=farmatsevtika>
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Statistik to'plam. Toshkent, 2024. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/regional-statistics>
4. Gujarati, D. N., Porter, D. C. Basic Econometrics. 5th Edition. New York: McGraw-Hill Education, 2020. <https://www.mheducation.com/highered/product/basic-econometrics-gujarati/M9780073375779.html>
5. Wooldridge, J. M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. 7th Edition. Boston: Cengage Learning, 2021. <https://www.cengage.com/c/introductory-econometrics-a-modern-approach-7e-wooldridge/>
6. Enders, W. Applied Econometric Time Series. 4th Edition. New York: Wiley, 2019. <https://www.wiley.com/en-us/Applied+Econometric+Time+Series%2C+4th+Edition-p-9781118808566>
7. World Health Organization (WHO). Global Report on Access to Medicines. Geneva, 2022. <https://www.who.int/publications/i/item/9789240045619>
8. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). Pharmaceutical Sector Profile and Industrial Development Report. Vienna, 2022. <https://www.unido.org/resources-publications>
9. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Innovation and Productivity in Pharmaceutical Industries. Paris: OECD Publishing, 2021. <https://www.oecd.org/industry/innovation-and-productivity-in-pharmaceutical-industries.htm>
10. Box, G. E. P., Jenkins, G. M., Reinsel, G. C. Time Series Analysis: Forecasting and Control. Hoboken: Wiley, 2019. <https://www.wiley.com/en-us/Time+Series+Analysis%3A+Forecasting+and+Control%2C+5th+Edition-p-9781118675021>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>